

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SO‘ZNING O‘RNI

Yuldasheva Mohira Kabulovna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning so‘z qo‘llash mahorati yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** metod, uslub, badiiy nutq, janr, tarixiy va ijodiy xarakter, estetik tafakkur*

ANNOTATION

This article describes O‘tkir Hashimov’s skill in using words.

***Key words:** method, style, artistic speech, genre, historical and creative character, aesthetic thinking*

Bugungi yangilanayotgan davr hamda inson ma’naviy olami badiiy ijodning ayrim masalalariga yondashuvni yanada chuqurroq tahlil qilish va bugungi adabiy jarayon va qator nazariy xulosalarni yangicha idrok etishni taqozo qilmoqda. Bu masalalar qatorida ijodiy metod, uslub va janr munosabatlari salmoqli o‘rin tutadi. Zero, bulardan hech biri o‘zaro bir-biri bilan aloqalarsiz taraqqiy eta olmaydi. Albatta, bu tushunchalar badiiy ijodning eng muhim masalalaridan bo‘lib, ularning tarixiy va ijodiy xarakteri, davr va inson ma’naviyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liqligi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, “uslub” tushunchasi bilan bog‘liq holda uslub va metod, uslub va shakl, uslub va janr munosabatlari, shuningdek, uslubiy yo‘nalishlar va uslublar muqoyasasi (tipologiyasi) kabi xilma-xil muammolar tug‘ilganki, adabiyotshunoslik ilmining tabiati ham, badiiy takomili rivoji ham bu chalkashliklarga aniqlik kiritishni talab qiladi”.

Chunki, adib uslubi qanchalik xususiy, rang-barang, o‘ziga xos bo‘lsa ham badiiy ijod qonuniyatlari hamda metod va janr rivojida kechayotgan o‘zgarish va yetakchi xususiyatlar ta’siridan xoli bo‘la olmaydi. Uslubiy o‘ziga xoslik, yani individual talqin va uslubiy yo‘nalishlar adabiy, estetik tafakkur takomilidagi hodisalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, ular ma’lum bir davr badiiy ijodi va asarlarga xos yetakchi jihatlarni aniqlash uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Badiiy asar tili muallif nutqi, persanajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iboratdir. Badiiy nutqning bu elementlari tuzilishi, ohang va tarkibidagi til vositalarining qo‘llanilishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Agar badiiy ijodda bu elementlar birlashtirilsa, ma’lum bir badiiy asarning yagona uslubi vujudga keladi. Ana shu uslubning shakllanishida muallif nutqi obrazi asosiy o‘rin egallaydi.

O‘zbek adabiyoti favqulodda talant egalari va noyob iste’dod sohiblariga boy adabiyotdir. Ana shunday tug‘ma iste’dod sohibi, el ardoqlagan ijodkorlardan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovdir. Uning asarlari xalq orzu-umidlarini, dard-u armonlari bilan yo‘g‘rilgan. O‘tkir Hoshimov o‘ziga xos yozuvchi bo‘lib, qaysi mavzuda qalam tebratmasin, o‘z qahramonlarini hayotiy, jonli odam sifatida tasvirleydi, ularning ruhiyati, botiniy olamini ham teran yoritadi. Zero, yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek, “Qaysi yozuvchining kitobini o‘qiganda asardagi odamlarni shunchaki “personaj” emas, tirik inson deb qabul qilsangiz, sevgan qahramoningiz o‘lib qolsa, qattiq iztirobga tushsangiz, o‘sha adib haqiqiy yozuvchi bo‘ladi”. Qariyb ellik yil ijod qilgan O‘tkir Hoshimov asarlari insonni hayajonga soladigan, vijdonini uyg‘otadigan, ezgulikka chorlaydigan asarlardir.

Adib asarlari kitobxonni o‘ziga jalb qilishining yana bir jihati shundaki, hikoya, qissa va romanlarning tili shirador, xalq tiliga hamohanglik kuchli, shoirona his va romantik ruh bo‘rtib turadi.

Ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati badiiy obrazlarning ismlarida ham ko‘rinadi. Zero, har bir obraz xarakteri, uning ijobiy va salbiy xususiyati avvalo uni nomida aks etadi. Shu tufayli adib bu masalaga befarq bo‘lmay, obrazlar nomini ular saviyasiga muvofiqlashtiradi. Binobarin, badiiy obrazning mohiyati voqelikni badiiy

umumlashmaga aylanishi va betakror alohidalikda aks etishi va ifodalanishida uning nomidagi ma'no ham muhim vazifa bajaradi. Bu xususiyatlar O'tkir Hoshimov asarlaridaham bo'lib, katta qiziqish uyg'otadi. Romanda Rustam, Shahnoza, Qurbonoy xola, Shomatov Shomansur, Umida, Soat G'aniyev, Vasiliy Grigoriy Stepanovich, Sanjar, Dilfuza, Muxtabar, Obidxon Eshon, Yunusboy, Fotima Obidova, Husan, To'lagan Hakimov, Temur Jo'rayev, Sasha, Lvoya, Misha, Xayriddin, Saida'zam Saydaliyev, Xayrulin, Nazira, Mauzer, Mels, Gulnora, Hasan, Husan, Ilhom, Dilnoza, Nazira, Klavdiya Sergeyevna kabi asar qahramonlari ishtirok etgan.

Adib ijodida uchraydigan obrazlarning nomi chuqur mulohaza, asardagi mazmuni ochishga qaratilgan maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanlanadi. "Tushda kechgan umrlar" romanida Komissar Soat G'aniyev obrazi. Bu nom tasodifiy bo'lmay, tuzum mashinasining timsolidir. Uning ismini aynan Soat deb tanlanishi ham shunga ishora. Ramziylikka asoslangan obraz nomlarini qo'llashdan maqsad ham dunyoda eng adolatli tuzum" deb atalgan sotsializm jamiyatining asl qiyofasini namoyon qilishdi. Yozuvchining romanda oldiga qo'ygan maqsadi ham shu. Yozuvchi uni kommunistik e'tiqodga sodiq qoladigan, o'sha totalitar tuzum siyosatiga va mafkurasiga sodiq kimsa sifatida tasvirlaydi. U shunday kimsaki, davlat qonunlarini, siyosatini har qanday insoniylikdan, mehr-oqibat, farzandlik va otalik, do'stlik hamda umr yo'ldoshlikdan ustun qo'yadi. Umri o'tib, uning qarashlarini zamonlar almashib hayot rad etayotgan bo'lsa-da, o'z qarashlaridan voz kechmaydi. Yozuvchi Soat G'aniyev shakllanishida muhitning rolini to'g'ri rasvirlab beradi. "Romanda komissar Soat G'aniyev obrazi faqat O'tkir Hoshimov ijodida emas, o'zbek adabiyotidagi topilmadir". Begunoh o'zi bilan birga o'sgan Hakimov To'laganni yo'q qilgach, uning ayoli Fotimaning sha'ni va nomusini bulg'aydi. Halollik va poklik asosiga qurilgan butun bir oilani parokanda qilgan, uning imonli a'zolari boshiga ko'rgiliklar solgan bu kabi yovuzlarni yer yutmasligiga hayron bo'lish mumkin, biroq asarni o'qish davomida nimaga bunday bo'lmaganligining mohiyatini anglab yetish mumkin. Ya'ni bunday razil kimsalarga o'lim oson jazo ekanligi, tiriklik chog'idayoq

o‘z qilmishlarining jazosini olishi undan-da og‘irligi ta’kidlanadi. Qolaversa, yozuvchi asarda bu qahramon orqali mustabid tuzumning chirkin jazo usullari-yu qiynoq azoblarini, o‘sha davrdagi adolatsizliklarni yoritib bergan. Asarda obrazlar tili orqali ularning xarakteri ham mufassal ochib berilgan. Jumladan, Komissar o‘zining har bir qilgan ishini garchi insoniylikdan butunlay yiroq bo‘lsa ham to‘g‘ri deb biladi va o‘zini hamisha haq hisoblaydi. Shu orqali ijodkor obraz dunyoqarashini ochib beradi. Ya’ni uning fikricha: “Bu dunyo muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o‘sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bir vintcha o‘z vasifasini ado etmog‘i kerak. Bittasi ishlamay qolsa, ko‘rasan nima bo‘lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so‘kilib ketadi...”. Uning yo‘lidan nafaqat begonalar, balki o‘z oila a‘zolari qarshi chiqsa ham hech kimni ayamaydi. Hattoki buni o‘zi ham tan oladi: “Men prinsip uchun onasidan kechgan odamman”. U har qadamida, har bir so‘zida atrofidagilardan gumonlanadi, hamisha ularga yomon nazar bilan qaraydi. U uchun olam o‘zining ranginligini yashirib, faqat qora rangda ko‘rinadi. “Yugur- yugur!–deb o‘yladi Komissar ensasi qotib.– Umringni uzaytirmoqchisan? Heh! Ko‘chani kesib o‘tayotganingda paq etib mashina urib ketsa–tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo‘shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi. Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo‘p, professorsan. Xo‘p, ana oyliging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so‘m ma’osh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo‘ladimi? Poraxo‘r! Hammasi poraxo‘r!” Hattoki, Rustamning xotini Shahnozaga ham aqlga sig‘mas gumon nazari bilan qarab, u to‘g‘risida Qurbonoy xoladan: “Kelin-chi, kelin? Qadami qiyshaymayaptimi?” -deb so‘raydi. Asardagi voqealar nihoyasigacha Soat G‘aniyev xarakteriga xos illat yo‘qolmaydi, aksincha yozuvchi uni kommunistik e’tiqoddan qaytmaydigan, totalitar tuzum siyosatiga hamda mafkurasiga o‘la-o‘lgunicha sodiq kimsa sifatida tasvirlaydi. U davlat qonunlarini, mavjud siyosatni har qanday insoniylikdan, mehr-oqibat, farzandlik va otalik, do‘stlik va umr yo‘ldoshlikdan-da ustun qo‘yadi. Oqibatda birin–ketin yaqinlarini yo‘qotadi. Farzandlari ham otadan nafratlanadi. Hattoki, katta o‘g‘li Mauzer yuragidagi alam va nafratli hayqiriq “Siz – qotilsiz! Hammang

qotilsan! Yigirma million odamni gumdon qilgan jallodsan!” deya otaga hamda tuzumga qarshi isyon sifatida yangradi.

Asar mazmunini ochishda Qurbonoy xola obrazi ham alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi ijodiy laboratoriyasidagi sirlardan yana biri shundaki, u asardagi ayrim qahramonlarning ismlari orqali ularning taqdirilariga ham ishora qilganday bo‘ladi, nazarimizda. To‘laganova Qurbonoy ham o‘z nomi bilan yashab turgan muhit qurboni. Komissarning qilmishlari sababli otasi Hakimov To‘lagan “xalq dushmani”, onasi Fotima Obidova Komissarning tahqirlaganiga chidolmay o‘z joniga qasd qiladi, ateist qaynotasi kelin bo‘lib tushibdiki, Qurbonoyga kun bermaydi oxir-oqibatda Umida ismli qizi bilan eri bilan ajrashishga majbur bo‘ladi. Taqdirni qarangi, bu qismat qizida ham takrorlanadi, uning ham oilasi buziladi. O‘ziga va oilasini barbod qilganlar haqida hech kimga shikoyat qilmaydi, aksincha, ishonch bilan “Qur’onda bitilgan: Oллоh har narsani ko‘rib turguvchidir. Tangrim hammasini ko‘rib turibdi ” – deya faqat Yaratgangagina havola qilish bilan taskin topadi.

Asosiysi shundaki, obraz nomi muallifda ham, kitobxonda ham yo xayrixohlik yoki nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi va bu xislatlar asardagi voqealar, obrazlar xatti-harakatida ochila boradi. Bunda kesatiq, kinoya kabi uslubiy unsurlar qo‘l keladi, ba’zan obrazlar faqat kishilar nomi bilan emas, balki ularga xos yetakchi sifatlar bilan ham, yoki asar qahramonlari tilidan boshqa bir qahramonlarga nom qo‘yish holatlari kuzatiladi va bir yoki ikki so‘zdan iborat shaklda beriladi. Masalan, “Tushda kechgan umrlar” romanida Rustam tilidan komissar Soat G‘aniyevga “Yovuz Ruh”, kelini Lola esa uni “Glushitel”, Qurbonoy xola “Shapkasiz shapkali” deb nom qo‘yishadi. Qolaversa, Rustam Vasiliy Grigoriy Stepanovichni “Barzangi”, Dimitsiy Stepanovichni “Jingalak”, ozg‘in, zahil yuzli cholni “Arvoh” deya nomlashadi. “Nur borki, soya bor” asarida esa Sirojiddin haqiqatni talab qilib talaba bo‘lgan qizni “Qora chigirtka”, Sayfi Soqiyevich Gartorg boshlig‘ni “Shef ” kabi nomlar bilan ataydi.

Asardagi qahramonlarning ism-shariflarida, yoki ularning bir- biriga nom qo‘yishi kabi o‘rinlarda adib uslubidagi har bir personajga mos nom tanlash

mahoratining yangi qirralari ochila boradi. “Nur borki, soya bor” romanida ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

1) Tashqi qiyofasiga asoslanuvchi nomlar:

Chol, Qora chigirtka,

2) Hunari va ijtimoiy faoliyatiga mos atalgan nomlar:

Doktor opa, Bo‘lim mudiri, Qorovul, Folbin, Professor, Domla, Oshpaz Masha xola

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham har bir personajga mos nom tanash mahoratini shartli ravishda yuqoridagi singari guruhlash mumkin.

1) Tashqi qiyofasiga asoslanuvchi nomlar:

Yovuz Ruh, Jingalak, Shapkasiz shapkali, Barzangi, Arvoh;

2) Hunari va ijtimoiy faoliyatiga mos atalgan nomlar:

Komissar, Prapisir, Obidxon Eshon, Hakim tegirmonchi,

Ko‘rinadiki, adibning personajlarga nom qo‘llashdagi o‘ziga xos uslubi, albatta, asarning mazmun-mohiyati, so‘z boyligi hamda obrazlar yaratish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bog‘liq.

Adib uslubining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri asarlarida o‘xshatishlardan unumli foydalanishidir. Jumladan, “Nur borki, soya bor” romanida “narxi arzonlashgan muhabbat”, “soybondek dumaloq tut daraxti”, “o‘q yegan lochindek”, “zumrad nuqradek yaproqchalar”, “rapidadek qo‘l”, “cho‘michdek burun”, “saksovuidek ozg‘in tajang hamshira”, “echkisi harom o‘lgan kampirga o‘xshab ming‘illamoq” singari o‘xshatishlardan foydalanilgan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham o‘xshatishlardan unumli foydalanilgan. Romanda foydalanilgan “kasalmand xazonlar”, “kafandek tuman”, “kulga tushgan cho‘g‘dek”, “daydi o‘q”, “yer-u ko‘kni kafanga o‘rashga qasd qilgandek”, “devdek gavdali”, “muzdek qamchi”, “olmadekkina lampochka”, “ko‘zdek qo‘shni”, “guldurakdek ovoz”, “jigarrang ilondek”, “o‘lat oralagudek huvullamoq”, “mushukdek ko‘z”, “qahrabodek uzum”, “turnaning ko‘zidek ko‘llar”, “teplavoz gudokidek chinqirmoq”, “ipdek barmoq”, “ariga talangan ayiqdek”, “ipdek qosh”,

“olmadek musht”, “shudring tomchisidek musaffo qalb”, “chinnidek tiniq osmon”, “gavhar donalaridek yirik-yirik yulduzlar”, “uyingga bug‘doy to‘lgur nevaralar”, “cho‘g‘dek gilam”, singari o‘xshatishlarning ko‘pchiligini hali takrorlanmagan badiiy topilmalar deyishimiz ham o‘rinli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub.–Toshkent.: Fan, 1992
2. Hoshimov O‘. Yarimasr daftari. –Toshkent. “Movaraunnahr” nashriyoti. 2014.
3. Karimov H. Adabiy portretlar – Toshkent. Yangi nashr. 2017
4. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar– Toshkent. Qaldirg‘och. 2018.